

**KERAVORT PREPARATINI KONDILOMALARNI DAVOLASHDA
QO'LLASH**

Asqarova I.B.¹ Boymurodova N.Ch.¹ Qosimova H.J.¹

¹Toshkent Tibbiyot Akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston

Annatsiya. Genital sohalarda uchraydigan kondilomalarni davolashda Kerovort preparatini ta'sir effektini o'rganish uchun bemorlarda kuzatuv olib borildi. Kondiloma - bu odam papilloma virusi (HPV) natijasida tashqi jinsiy a'zolar va perianal soha terisida hosil bo'ladigan epiteliy o'smalari bo'lib, odatda asimptomatikdir, ammo ular vaqtida davolanmaydigan taqdirda, katta hududlarni egallab, qon ketishi, qichishish va og'riqlarga olib keladi. Ayniqsa, katta hududlarni egallagan kondilomalar bemorlarda psixologik noxushliklar keltirib chiqaradi. Maqolada, ushbu kasallik kelib chiqish etiologiyasi, klinik belgilari va davolash haqida so'z boradi. Tadqiqotlar, anogenital kondilomalarni destruktiv usul (elektrokoagulyatsiya) va mahalliy immunomodulyator Keravort preparati yordamida davolashning kombinatsiyalangan usul samaradorligini aniqlaydi.

Kalit so'zlar: Kondiloma, Odam pappiloma virusi, anogenital soha, qon ketish, qichishish, psixologik noxushlik, eletrokoagulyatsiya, immunomodulyator, Keravort.

Применение препарата Кераворт в лечении кондилом

Аскарова Ирода Бахтиёр кизи, Боймуродова Назокат Чори кизи,

Косимова Хадича Жахонгир кизи

Ташкентская медицинская академия, Ташкент, Узбекистан

Аннотация. Было проведено наблюдение за пациентами для изучения эффективности препарата Кераворт в лечении кондилом, возникающих в области гениталий. Кондиломы — это эпителиальные новообразования, возникающие на коже наружных половых органов и перианальной области в результате вируса папилломы человека (ВПЧ). Как правило, они протекают

бессимптомно, но при отсутствии своевременного лечения могут разрастаться на большие участки, вызывать кровотечения, зуд и боли. Особенно обширные кондиломы вызывают у пациентов психологический дискомфорт. В статье рассматриваются этиология, клинические проявления и методы лечения данного заболевания. Исследования определяют эффективность комбинированного метода лечения аногенитальных кондилом с применением деструктивного метода (электрокоагуляция) и местного иммуномодулирующего препарата Кераворт.

Ключевые слова: Кондилома, вирус папилломы человека, аногенитальная область, кровотечение, зуд, психологический дискомфорт, электрокоагуляция, иммуномодулятор, Кераворт.

Application of the Keravort Preparation in the Treatment of Condylomas

Asqarova I.B.¹, Boymurodova N.Ch.¹, Qosimova H.J.¹

¹Tashkent Medical Academy, Tashkent, Uzbekistan

Annotation. A study was conducted on patients to examine the effectiveness of the Keravort preparation in the treatment of condylomas occurring in the genital area. Condylomas are epithelial growths that develop on the skin of the external genital organs and the perianal region as a result of the human papillomavirus (HPV). They are usually asymptomatic, but if left untreated, they can spread over large areas, causing bleeding, itching, and pain. Extensive condylomas, in particular, can lead to psychological discomfort in patients. This article discusses the etiology, clinical manifestations, and treatment of this disease. The study evaluates the effectiveness of a combined treatment method for anogenital condylomas using a destructive technique (electrocoagulation) and the local immunomodulatory drug Keravort.

Keywords: Condyloma, human papillomavirus, anogenital region, bleeding, itching, psychological discomfort, electrocoagulation, immunomodulator, Keravort.

Dolzarbligi. Kondilomalar bemorlarga sezilarli psixologik ta'sir ko'rsatishi mumkin, jumladan, katta hududlarga tarqalishidan qo'rquv, aybdorlik, jinsiy hayotda muammolar hamda ayollarda bepushtlikka va saraton rivojlanishi mumkinligidan



xavotirlanish. Anogenital kondilomalar ichida premalign va malign o'smalar mavjud bo'lishi mumkin va kondilomalar ham xavfli o'smalarga aylanishi mumkin. Xavfli o'smalarga transformatsiyalanish belgilari bo'lib, qon ketishi, notekis pigmentatsiyalanish, yaralanish va palpatsiya qilinganda seziladigan dermal infiltratsiya hisoblanadi. Bundan tashqari kondilomalarni davolash mohiyatan faqat simptomatik bo'lib, kasallik belgilarini yo'qotish yoki kamaytirishga qaratilgan. Mavjud davolash usullari HPV infeksiyasidan to'liq xalos qilmaydi va virusning keyingi yuqishini oldini olmaydi. Har qanday davolash usulidan keyin kasallik qaytalanishi mumkin. Shu sababli, hozirgi kunda kasallikka qarshi kurashishning mohiyati bu qaytalanish xavfi kamroq bo'lgan davolash usullarini aniqlashdir.

Tadqiqot materiali va usullari. Tadqiqotga Toshkent viloyati teri va tanosil kasalliklari dispanserida Kondiloma tashxisi qo'yilgan 16 dan ortiq bemor qamrab olingan. Barcha bemorlarda kasallikka qarshi kombinatsiyalangan usul yordamida davolash olib borilgan bo'lib, bu usul elektrokoagulyatsiya orqali o'choqlarni yo'q qilish va immunitetni stimulyatsiya qilishni o'z ichiga olgan. Mahalliy immunitatni rag'batlantirish uchun zararlangan soha Hindistonning "Glenmark Pharmaceuticals LTD" farmatsevtik kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan Keravort (Imiximod) kremidan foydalanilgan.

Keravort (5% li Imiximod) - Nukleozidga o'xshash birikma bo'lib, mahalliy ravishda so'gallarga qo'llanilganda immunomodulyator sifatida ta'sir ko'rsatadi, interferon-alfa va gamma ishlab chiqarilishini rag'batlantiradi hamda CD4+ T-limfositlar kabi immun hujayralarni jalb qiladi. Bu esa immun javob orqali so'gallarning kamayishiga olib keladi va HPV DNK miqdorining pasayishiga olib keladi. Keravort preparati bir martalik ishlatish uchun paketlarda ishlab chiqariladi va haftada 3 marta (kun ora) kechasi, uxlashdan oldin (6-10 soat davomida) so'gallarga surtiladi. Ertasi kun ertalab dori surtilgan joy suv va yumshoq sovun bilan yuviladi.

Tadqiqot jarayonida 16 nafar "O'tkir uchli kondiloma" tashxisi qo'yilgan bemor kuzatildi. Bemorlarning 12 nafari ayol va 4 nafari erkak bo'lib, har ikki jins vakillari ham anogenital sohadagi qichishish, og'riq va noxushlik hissiga shikoyat qilgan. Bemorlarning 10/16 qismida o'choq genital hamda perianal sohani egallagan.



Qolgan 6/16 qismida esa faqat genital sohada bo'lib, bir biriga qo'shilmagan kichik o'choqlar ko'rinishida tarqalgan. 90% bemorlar kasallikni kelib chiqishini tartibsiz jinsiy hayot bilan bog'lagan.

Davolash destruksiya amalga oshirilishidan 3-4 kun avval Keravort kremi bilan ishlov berishdan boshlandi. Elektrkoagulyatsiya o'tkazilgandan keyin yallig'lanish belgilarini bartaraf etilgandan so'ng 7 kun davomida har 2 kunda bir marta mahalliy ishlov berish davom ettirildi. Katta sohalarda zararlanish mavjud bemorlarda o'choqlar davolashning 7 kunida sezilarli kamayishni boshlagan.

Natijalarni muhokama qilish. Anogenital o'tkir kondilomalarni (O'TK) davolashda kombinatsiyalangan usulning samaradorligini o'rganish, bu usul destruktiv usul (elektrokoagulyatsiya) va mahalliy immunomodulyator — Keravort kremi qo'llanilishini o'z ichiga olgan. Davolash o'rtacha 7 kun muddatni o'z ichiga olgan bo'lib, bemorlarning 62,5% i davolashning 12-kunida, 37,5% i esa 7-kuniga kelib o'choqlardan butunlay halos bo'lgan. Davolash olib borilgan barcha 16 nafar bemorda 100% natijaga erishilgan. Davolash natijasida bemorlarda hech qanday nojo'ya ta'sir kuzatilmagan. Bemorlar keyinchalik 3 oy davomida kuzatilgan. Keravort kremi bilan kombinatsiyalangan terapiya va o'choqlar destruksiyasi orqali davolangan barcha bemorlarda anogenital kondilomalarni qaytalanishi kuzatilmagan.

Xulosa. Anogenital kondilomani immunomodulyator Keravort bilan ishlov berish va destruksiya usulini birgalikda qo'llash yuqori samaradorlikka ega bo'lib, deyarli to'liq qaytalanishning yo'qligi bilan ajralib turadi.

ADABIYOTLAR:

1. Cusini M, Salmaso F, Zerboni R, Carminati G, Vernaci C, Franchi C et al. 5% Imiquimod cream for external anogenital warts in HIV-infected patients under HAART therapy. Int J STD AIDS. 2004;15(1):17-2
2. Yang J, Pu YG, Zeng ZM, Yu ZJ, Huang N, Deng QW. Interferon for the treatment of genital warts: a systematic review. BMC Infect Dis. 2009;9:156
3. Scheinfeld N. Update on the treatment of genital warts. Dermatol Online J. 2013 Jun 15;19(6):18559. [PubMed]
4. Komericki P, Akkilić-Materna M, Strimitzer T, Aberer W. Efficacy and



safety of imiquimod versus podophyllotoxin in the treatment of anogenital warts. Sex Transm Dis. 2011;38(3):216-8

5. **FifebKH, Ferenczy A, Douglas JM, Jr., Brown DR, Smith M, Owens ML,** Treatment of external genital warts in men using 5% imiquimod cream applied three times a week, once daily, twice daily, or three times a day. Sex Transm Dis. 2001;28(4):226-31.
6. **Stefanaki C, Katzouranis I, Lagogianni E, Hadjivassiliou M, Nicolaidou E, Panagiotopoulos A,** et al. Comparison of cryotherapy to imiquimod 5% in the treatment of anogenital warts. Int J STD AIDS. 2008;19(7):441-4